

Коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар учун қонунчиликда қуйидаги жавобгарликлар белгиланган:

ПОРА ОЛИШ –

энг кам ойлик иш ҳақининг эллик бараваридан юз бараваригача жарима;

ёки муайян ҳуқуқдан маҳрум этилган ҳолда икки йилдан беш йилгача озодликни чеклаш;

ёхуд беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

ПОРА БЕРИШ –

энг кам ойлик иш ҳақининг эллик бараваридан юз бараваригача миқдорда жарима;

икки йилдан беш йилгача озодликни чеклаш;

беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

ПОРА ОЛИШ-БЕРИШДА ВОСИТАЧИЛИК ҚИЛИШ –

энг кам ойлик иш ҳақининг эллик бараваридан юз бараваригача миқдорда жарима;

ёки икки йилдан беш йилгача озодликни чеклаш;

ёхуд беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

ПОРА ОЛИШ, БЕРИШ ёки ВОСИТАЧИЛИК ҚИЛИШ

оғирлаштирувчи ҳолатларда
содир этилганда

10 йилдан 15 йилгача
озодликдан маҳрум
қилиш билан жазоланади



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ



@huquqiyaxborot

Адлия вазирлигининг ижтимоий
тармоқлардаги саҳифалари:



instagram.com/adliyanews



ok.ru/adliya



twitter.com/minjustuzb



fb.com/groups/adliya



vk.com/adliyaуз



youtube.com/adliya



КОРРУПЦИЯга ҳозирок зарба беринг!



КОРРУПЦИЯ –

шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзгаларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этишидир.

КОРРУПЦИЯ ҚҰЙДАГИ ШАКЛЛАРДА НАМОЁН БЎЛАДИ:



- Порахўрлик;
- Непотизм (қариндош-уруғчилик, ошна-оғайнигарчилик);
- Фирибгарлик;
- Товламачилик;
- Хизмат вазифасини суистеъмол қилиш;
- Ноқонуний молиявий операциялар (откат).



РИВОЖЛАНГАН ЖАМИЯТДА КОРРУПЦИЯНИНГ ҚҰЙДАГИ ТУРЛАРИ ТЕЗ-ТЕЗ УЧРАЙДИ:



Маиший коррупция, асосан мансабдор шахслар ва давлат хизматчиларининг кундалик иш фаолиятида фуқаролар билан муносабатларида манфаатлар тўқнашади;



Ишбилармонлик коррупцияси, бу ҳокимият вакилларининг тадбиркорлик субъект (бизнесмен)лари билан муносабатларида учрайди;



Олий ҳокимият органлари коррупцияси, бу демократик жамиятларда сиёсий ҳукмрон доиралар ҳамда одил судлов тизими фаолиятида кўзга ташланади.

Мамалакатимизда коррупцияга қарши курашиш бўйича бевосита фаолиятни амалга оширувчи давлат органлари қуйидагилар:



Бош прокуратура;



Давлат хавфсизлик хизмати;



Ички ишлар вазирлиги;



Адлия вазирлиги;



Бош прокуратура ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаменти.

Коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар тўғрисида ахборот бераётган шахслар давлат ҳимоясида бўлади



Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 210, 211 va 212-moddalari asosida javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar haqidagi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limiga yoki quyidagi telefon raqamlari orqali xabar berishingiz mumkin:

 **+998936194002**
+998995607170



Urganch davlat pedagogika instituti

 Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1-A uy
 t.me/urdpi_uz
 www.urspi.uz
 fb/urspi.uz
 Instagram.com/urspi.uz



Urganch davlat pedagogika instituti

KORRUPSIYA-TARAQQIYOT KUSHANDASI



Urganch shahar 2024-yil

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunini qabul qilinishidan asosiy maqsad korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Korrupsiya - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;



O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunida ilk marotaba davlat xizmatchilarining korrupsiya holatlari haqida xabar berish majburiyati belgilandi.

Unga ko'ra, "davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida biron – bir shaxs o'zlariga murojaat etganligiga doir barcha holatlar to'g'risida, shuningdek, davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan har qanday faktlari haqida o'z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart" (*Qonunning 26 – moddasi*).

Korrupsiyaviy xavf–xatar - institut xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan institut nomidan yoki ularning manfaatlari yo'lida korrupsiyaviy xatti-harakatlarni amalga oshirish xavfi;

Korrupsiyaviy xatti-harakatlar - xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qag'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (*pora olish*) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;



Institut xodimlariga o'z xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida jismoniy va yuridik shaxslardan sovg'alar, mehmondo'stlik belgilari, jumladan qarz, kafolatlar, kafillik, mukofot, moddiy yordam, naqd pulsiz va naqd pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari, qimmatbaho qag'ozlar, kriptovalyuta va boshqa moddiy qadriyatlar yoki xizmatlar ko'rinishidagi rag'bat vositalarini olish taqiqlanadi.

Institut xodimi fuqarolar va yuridik shaxslarga nisbatan munosabatda halol, odil va mustaqil xulq-atvor namunasi bo'lishi va shu orqali ularda korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

**JAMIYAT RIVOJIGA G'OV BO'LADIGAN
YANA BIR ILLAT BU KORRUPSIYA**

SH.MIRZIYOYEV